



THE ROLE OF CORTICOSTEROIDS IN THE TREATMENT OF RETINAL VEIN OCCLUSION

¹Tojimirzayeva Nilufar

²Nishanova Yulduz

¹Tashkent State Medical University

²RSSPMCO&R of Tashkent regional branch

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19758418>

ARTICLE INFO

Received: 17th April 2026

Accepted: 23rd April 2026

Online: 24th April 2026

KEYWORDS

*Retinal vein occlusion,
neovascularization,
metamorphopsia,
scotoma.*

ABSTRACT

Retinal vein occlusion is a disease caused by partial or complete blockage of the veins draining blood from the retina, leading to sudden and painless vision loss. It is divided into two types: central retinal vein occlusion and branch retinal vein occlusion, depending on the affected vessel. The condition usually develops on the background of vascular disorders or abnormalities in blood coagulation. Early symptoms include blurred vision, metamorphopsia, and scotomas, typically affecting one eye. Fundus examination reveals retinal hemorrhages and macular edema. In long-term cases, vision loss may become irreversible due to macular damage and visual field narrowing, and the risk of neovascularization increases. The disease is more common in individuals over 50 years of age and is strongly associated with systemic conditions such as hypertension, diabetes mellitus, atherosclerosis, and glaucoma. Global prevalence is estimated at about 0.52%, with higher rates in Asia (0.9–2.1%).

RETINAL VENA OKKLYUZIYASI DAVOSIDA KORTIKOSTEROIDLARNING ROLI

¹Tojimirzayeva Nilufar

²Nishanova Yulduz

¹Toshkent davlat tibbiyot universiteti

²Respublika Onkologiya va Radiologiya markazi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19758418>

ARTICLE INFO

Received: 17th April 2026

Accepted: 23rd April 2026

Online: 24th April 2026

ABSTRACT

Retinal vena okklyuziyasi — bu retina venalarining qisman yoki to'liq to'silib qolishi natijasida yuzaga keladigan kasallik bo'lib, to'satdan va og'riqsiz ko'rishning pasayishi bilan namoyon bo'ladi. U zararlangan tomirga qarab markaziy va tarmoqli turlarga bo'linadi. Kasallik ko'pincha qon tomir kasalliklari yoki qon ivish tizimidagi buzilishlar fonida rivojlanadi.

**KEYWORDS**

*Retinal vena okklyuziyasi,
neovaskulyarizatsiya,
metamorfopsiya,
skotoma.*

Dastlabki belgilariga ko'rishning xiralashishi, metamorfopsiya va skotomalar kiradi, odatda bir ko'z zararlanadi. Ko'z tubini tekshirganda qon quyilishlar va makula shishi aniqlanadi. Uzoq davom etgan holatlarda ko'rish qaytmas darajada yomonlashishi, ko'rish maydoni torayishi va neovaskulyarizatsiya rivojlanishi mumkin. Kasallik asosan 50 yoshdan oshganlarda uchraydi va gipertoniya, qandli diabet, ateroskleroz hamda glaukoma bilan chambarchas bog'liq. Kasallikning dunyo bo'yicha tarqalishi taxminan 0,52% ni tashkil etadi, Osiyoda esa bu ko'rsatkich 0,9–2,1% atrofida.

Maqsad. Retinal vena okklyuziyasini davolash davomida kortikosteroidlarning alternativ sifatidagi rolini baholash.

Material metod va usullar. Ushbu metodda 60 nafar okklyuziyaga gumon qilinayotgan bemorlar yig'ildi. Bemorlar yoshi 20 yoshdan 70 yoshgacha (o'rtacha yoshi 55-65 yosh) bo'lgan katta ko'lamni o'z ichiga oladi. Retinal vena okklyuziyasiga gumon qilingan bemorlar uchun bosqichma-bosqich tekshiruv ketma-ketligi quyidagicha bo'ladi: 1)anamnez va shikoyat yig'ish 2)ko'rish qobiliyatini o'lchash. 3) fundus tekshiruvi 4) retina tekshiruvi: fundus OCTA. 50 yoshdan kichik bo'lgan bemorlar umumiy so'rovnoma o'tkazilganda ularning ayrimlarida gilyohvand moddalar iste'mol qilishi,

muhtazam chekishi aniqlangan. Juda kam qismida esa genetik jihatdan Protein S, C va Antirombin III yetishmovchiligi fonida tomirlarda tromblar mavjudligi ham qayd etilgan. Shuning uchun tahlillar ro'yxatiga protein defitsitini tekshirish uchun antigen testi va faoliyat testi ham qo'shilgan.

Natijalar. Tadqiqotda ishtirok etgan 60 nafar bemorlarning har bir tekshiruv usulidagi natijalari chuqur tahlil qilindi. Retinal vena okklyuziyasi jins farqlari bo'yicha sintez qilinganda ularning nisbati deyarli teng bo'lganligi sababli ham tadqiqotda bu ko'rsatkichga katta ahamiyat berilmadi. Asosiy e'tibor bemorlar yosh guruhlariga, trombofiliya kasalliklarining retinal vena rivojlanishiga bo'lgan ta'siriga qaratilgan.

1-jadval

Bemorlarning yosh bo'yicha taqsimlanishi

Yosh guruhlari	n	%
20-49	10	16,67
50-59	20	33,3
60-70	30	50
Jami	60	100



Tahlil natijalariga kora, 20-49 yosh guruhi 16,67% (10 nafar) ni, 50-59 yosh orasidagi bemorlar 33,3% (20 nafar)ni, eng katta guruhni esa 60-70 yoshli

alohida e'tibor qaratish kerak bo'lgan bemorlar 50% (30 nafar)ni tashkil etdi (1-jadval).

2-jadval

Yondosh kasalliklari mavjud bemorlar tahlili

	Soni	Foiz indeksi %
Protein C, S defitsiti	2	3,33
Trombofiliya	3	5
Yondosh kasalligi bo'lmagan bemorlar	5	8,33
Jami	10	16,66

Retinal vena okklyuziyasi 50 yoshdan kichik, tabiiy holatda organizmida tomirlar to'silib qolishi kuzatilmaydiganlarda uchrash ehtimolligi kam. Lekin ba'zi bemorlarda genetik moyillik yoki noto'g'ri hayot tarzi sababli tromb hosil bo'lishi holatlarida oldingi tadqiqotlarda okklyuziy rivojlanishiga sabab bo'lgani uchun ham protein C va protein S ga antigen testi va faoliyat testi o'tkazildi. 10 nafar bemorning 2 nafarida bu ikki oqsilga genetik defitsit mavjudligi sababli bemor qoni tez ivishi, tromboz xavfi ushbu oqsillar miqdori normal bo'lgan bemorlarga qaraganda yuqoriligi aniqlandi. Bemorlarning so'rovnoma bergan javoblariga ko'ra 3 nafari surunkali spirtli ichimliklar ichishi va tamaki chekishi aniqlandi. Qolgan 5 ta bemorda okklyuziyalar rivojlanishiga

ta'sir ko'rsatadigan qo'shimcha kasalliklar butkul aniqlanmagan. Ushbu bemorlar ko'rish o'tkirligi va OCT tekshiruvlari tahlillariga ko'ra 10 nafar bemorning 2 nafarida(1 ta protein C defitsiti, 1 ta orttirilgan trombofiliya) retina qavatida okklyuziyalar. Retinal okklyuziyaning eng asosiy qo'zg'atuvchisi gipertoniya va qandli diabet bo'lganligi uchun bemorlarni ushbu ko'rsatkichlar uchun ham tekshirildi va faqat diabeti bor kasallar 60 nafardan 20 tani, faqat gipertenziyasi bor bemorlar esa 25 tani, har ikki kasalligi mavjudlar soni esa 20 nafarni tashkil etdi(2-jadval). Ko'rish o'tkirligi va OCTA neovaskulyarizatsiya tahliliga ko'ra har ikki kasalligi mavjud 20 nafar bemorning 15 nafarida okklyuziyaga gumon tasdiqlandi(3-jadval).

3-jadval

Umumiy bemorlar orasida qandli diabet va gipertoniya mavjudlik korsatkichi

	Soni	Foiz indeksi %
Faqat gipertoniya	25	41,67
Faqat 1-tip qandli diabet	20	33,3
Gipertoniya + diabet	20	33,3



Tonometriya tahlilida umumiy 20 nafar bemorda ko'z ichki bosimi ortishi va sklera qavatida kuzatilgan, ammo ushbu bemorlarda uyquning buzulishi oqibatida qizarishlar paydo bo'lganligi uchun ham gumonlar tasdiqlanmadi. Ko'rish pasayishiga turtki bo'ladigan eng katta faktorlardan biri -makula shishi. Hamma bemorlarning makula holati

vizometriya usulida tekshirilganda 6 nafar 50 yoshdan katta bemorlarda qayd etildi va okklyuziyaga gumonlar tasdiqlandi. Umumiy natijalar hisoblanganda 20-49 yosh guruhida ko'lamida jami bo'lib 2 nafar, 50-59 yosh guruhida 15 nafar, 60-70 nafarida esa umumiy 6 ta bemorda okklyuziya qayd etildi(4-jadval).

4-jadval

Retinal vena okklyuziyasi mavjud bo'lgan bemorlarning yosh guruhiga ko'ra tasniflanishi

Bemorlarning yosh bo'yicha taqsimlanishi	Bemorlar soni	Umumiy bemorlarga nisbatan foizi
20-49	2	3,33 %
50-59	15	25 %
60-70	6	10 %
Jami	23	38,3 %

Retinal vena okklyuziyasi davosining asosiy maqsadi: makuladagi shishni kamaytirish, ko'rish qobiliyatini saqlab qolish, asoratlarni (neovaskulyarizatsiya, glaukoma) oldini olish. Davolash asosan kompleks tarzda olib boriladi va bunda asosiy dori vositasi sifatida anti-VEGF terapiya eng samarali va birinchi tanlov sifatida tanlanadi. Bu guruh preparatlari: Ranibizumab, Aflibersept va Bevakizumab. Ularning ta'siri: VEGF ni bloklaydi, tomir o'tkazuvchanligini kamaytiradi, makula shishini yo'qotadi, yangi patologik tomirlar hosil bo'lishini to'xtatadi. 23 nafar retinal vena okklyuziyasi tasdiqlangan bemorlarga 4 oy davomida, oyiga faqat bir martadan o'rtacha narxdagi Ranibizumab Anti-VEGF preparati inyeksiya qilindi va 4 oydan keyin qayta tekshiruv o'tkazilganda 5 nafar bemorda macula qavatidagi

shishlar hali ham saqlanib qolganligi va 10 nafar bemorlar moliyaviy yetishmovchilik sabab inyeksiya ololmaganligi aniqlandi. Alternativ davo sifatida bu 15 nafar bemorlarga kortikosteroidlar inyeksiya qilish boshlandi. Dexametason, Triamkinolon kabi steroid preparatlar anti-VEGF preparatlardan farqli ravishda har 3-4 oyda bir inyeksiya qilinadi va ularning ta'sir mexanizmi quyidagicha ishlaydi: yallig'lanishni kamaytiradi, kapilyar o'tkazuvchanlikni pasaytiradi, makula shishini kamaytiradi. Bemorlarga 12 oy davomida 4 kurs Deksametason inyeksiya qilindi. Davodan keyingi tekshiruv natijasiga ko'ra 15 nafar bemorlarning barchasida preparatlar yaxshi natijalar ko'rsatgan, ammo ba'zi bemorlarda ko'z ichki bosimini oshiradi (glaukoma xavfi), katarakta rivojlanishi kabi yon ta'sirlar kuzatilgan.



IF = 9.2

Xulosa. Retinal vena okklyuziyasi diabet va gipertoniya mavjud bemorlarda uchrash ehtimolligi yuqori bo'lgan, ko'rishning butkul yo'qolishigacha olib boradigan jiddiy retina kasalligi. Vena okklyuziyasiga ko'p omillar ta'sir o'tkazganligi sababli ham keng qamrovda, alohida e'tibor bilan diagnostika qilishni talab qiladi. Vena okklyuziyasini butkul davolab bo'lmaydi, lekin ko'p hollarda simptomlar va asoratlar muhim darajada kamaytirilishi va ko'rishni saqlab qolish mumkin. Davolashning eng samarali, yon ta'sirlari kam bo'lgan turi bu Anti-VEGF

preparatlar. Ammo ular har oyda bir marta inyeksiya olishni va juda katta mablag'ni talab qilganligi sababli ko'p bemorlar bu preparatlarni qabul qilolmasligi mumkin. Bu holatdagina alternativ sifatida kortikosteroidlar qo'llanilishi mumkin. Steroidlarning ustunlik jihatlari: ular 3 yoki 4 oyda bir qabul qilinadi, moliyaviy jihatdan hamyonbop. Lekin steroidlarning o'ziga yarasha kamchiliklari ham bor. Ularning qabul qilish davomida glaukoma va katarakta rivojlanishi xavfi oshishi mumkin.

References:

1. Retinal Vein Occlusion – EyeWiki <https://share.google/wk5BRx4Ox04AfNIJ6>
2. Global epidemiology of retinal vein occlusion <https://share.google/aimode/6NUGfH3Sm5fQGS5oc>
3. https://pmc.ncbi.nlm.nih.gov/articles/PMC2945292/?utm_source
4. Global epidemiology of retinal vein occlusion: a systematic review and meta-analysis of prevalence, incidence, and risk factors – PMC <https://share.google/iej3VxAuI6DU9mFbY>
5. Окклюзия ветви центральной вены сетчатки. <https://share.google/o6apWc5QCD255A76B>